

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

Toshkent farmatsevtika instituti

ORGANIK KIMYO FANIDAN

(MA'RUZALAR MATNI)

Tuzuvchi: k.f.d, prof.

A. Karimov

Taqrizchi: k.f.d, prof.

O.Shobilalov.

TOSHKENT - 2006 y

Kafedra yig`ilishida  
tasdiqlangan

Bayon N7.20.01.2006 y.

«Organik kimyo» fanidan farmatsiya fakulteti uchun  
№ 1,2 ma'ruza matni

1. **Mavzu:** Kirish. Organik birikmalarning kimyoviy bog`lar.
2. **Davom etishi:** 4 soat
3. **Maqsad:** Organik birikmalarning tasnifiy belgilari, Funktsional guruxlar bo`yicha birikmalarning sinfini aniqlash va kimyoviy bog`larning turlari, tuzilishi, atomlarning o`zaro ta'sirlanishidan kelib chiqadigan elektron effektlar haqida talabalarni bilimlarini shakllantirish.
4. **Reja:**
  - Funktsional gurux va uglerod skeletining tuzilishi.
  - Organik birikmalarning asosiy sinflari.
  - A.M. Butlerovning organik birikmalarning tuzilishi nazariyasi.
  - Organik birikmalarning klassifikatsiyasi.
  - Organik birikmalarning nomenklaturasi.
  - Organik molekullardagi kimyoviy bog`larning turlari.
  - Kovalent bog`ning ta'rifi (uzunligi, energiyasi, qutblanganligi v.x.)
  - Kovalent bog`larning turlari ( $\pi, \sigma$ ) va ularning grafik ifodalanishi.
  - Elektronodonor va elektronoaktseptor o`rinbosarlar.
  - $\rho, \pi$ - va  $\pi, \pi$ - ta'sirlanish ( $\pi, \pi$ - ta'sirlanish butadien-1,3 misolida,  $\rho, \pi$ - esa etilenxlorid, OR, NR<sub>2</sub> misolida).
  - Induktiv va mezomer effektlar. Mezomer effektning  $\pi, \pi$ - va  $\rho, \pi$ - ta'sirlanishi.
5. **Adabiyotlar:**
  - Primuxamedov I.M. «Organik kimyo», UzSSJ, «Meditsina», Toshkent, 1990 y.
  - Stepanenko B.N. «Kurs organicheskoy ximii», t. 1, 2 1981 y.
  - Iskandarov S.I., V. Sodikov «Organik kime nazariy asoslari», Toshkent, «Mexnat», 1987 y.
  - Nesmeyanov A., Nesmeyanov N.A. «Nachalo organicheskoy ximii», 1970 y.
  - Tyukavkina N.A Baukov Yu.I. «Bioorganicheskaya ximiya», 1985 y.
  - Chernox V.P., Zimenkovskiy B.S., Gritsenko I.S. «Organicheskaya ximiya», Xarkov, 1991 y.
  - Chernox V.P. Gritsenko I.S. Lozinskiy M.O. Kovalenko Z.I «Obhiy praktikum po organicheskoy ximii Xarkov izd. NFAU «Zoloto`e stranitso`». 2002 y.

## **Mavzu: Kirish. Organik birikmalarda kimyoviy bog`lar.**

Farmatsevtlar uchun organik kimyo fanini o`qitish katta ahamiyatga ega, chunki u farmatsevtik kimyo, biologik kimyo, farmakognoziya, toksikologik kimyo, dori tayyorlash texnologiyasi kabi fanlar bevosita bog`liq.

Hozirgi paytda yangi - yangi dori preparatlar ko`plab kashf etilayotganligi, ularning tuzilishi va ularda bo`ladigan o`zgarishlarni o`rganishda yangi usullardan foydalanish organik kimyoni o`rganishni taqoza etadi.




Har qanday fanning predmeti bo`lganidek, organik kimyo predmeti ham bor, ya'ni organik kimyo nimani o`rgatadi degan masala.

Organik kimyo - organik moddalarni tashkil etuvchi uglerod va uglerod birikmalari kimyosini o`rganuvchi fandır.


Tabiiyki savol tug`iladi nima uchun bir uglerod elementiga shuncha katta e'tibor. Nima uchun organik birikmalar, anorganik birikmalarga nisbatdan ko`p. Oxirgi ma'lumotlarga qaraganda organik birikmalar soni 10 mln ga yaqinlashgan, Vaholanki anorganik birikmalar soni 500-600 ming atrofida.

Bu savollarga quyida keltirilgan ma'lumotlar asosida javob olishimiz mumkin.

1. Uglerod atomining boshqa turli atomlar bilan bog`lanishi.
2. Har xil tuzilishga ega bo`lgan uglerod-uglerod zanjirlarini hosil qilish.



3. Uglerod-uglerod halqalari, uglerod geteroatom xalqalarini hosil qilish.
4. Uglerod-uglerod bilan nafaqat oddiy bog`, balki qo`sh bog`, uch bog` hosil qilishi.




Organik moddalar anorganik moddalarga nisbatan murakkab tuzilishga ega. Qattiq organik moddalar suyuqlanish temperaturalari 4000 dan ortadi. Ko`pchilik organik moddalar yonish xossasiga ega. Organik birikmalar katta amaliy ahamiyatga ega. Neft, tabiiy gaz, plastmassalar, kauchuk, tolalar, plenalar, polimerlar moddalar va v.h. qishloq xo`jaligida organik moddalar ishlatilishi hosildorligini oshiradi. Tibbiyotda sintetik dorivor moddalar ko`plab ishlatilmoqda.

Yuqorida keltirilganlar organik kimyoni mustaqil fan sifatida ajratishga asos bo`ldi. Boshqa fanlar kabi organik kimyo fani ham o`z tarixiga ega. Qadim zamonlardan odamlar organik moddalar bilan ish ko`rgan va ularni ajratib olgan. Masalan yog`lar, sirka kislota, qand, kraxmal va boshqalar. Organik moddalar kimyosini rivojlanishi davrlarini ko`radigan bo`lsak:


I davr-empirik davr deyiladi. Bu davr XVII asr o`rtalarida- XVIII davr oxirigacha davom etadi. Bu davrda Paratsel yadroximiyaga asos soldi. Bu davrda o`simliklardan limon, olma, oksalat va gall kislotalari ajratib olindi.

II davr-bu analitik davr deyiladi. Bu davr XVIII asr oxiri- XIX asr o`rtasini o`z ichiga oladi. Organik moddalar tuzilishini aniqlash usullari paydo bo`ldi. Lomonosov va Lavaze tomonidan massalar saqlanish qonuni (1748y), kimyoviy analiz metodlari paydo bo`ldi. Shu davrda organik moddalarning hammasi uglerod atomi saqlashi aniq bo`ldi. Shu davrda shvets olimi Bertselius organik kimyoni alohida fan sifatida kiritdi. Ammou organik moddalar faqat o`simlik va hayvon organizmidan «ilohiy kuch» yordamida olinadigan moddalar degan idialistik fikrda bo`lgan. Bu fikrni 1828 yildan nemis kimyogar F.Veler mochevinani anorganik modda ammoniy sianatdan olib puchcha chiqardi.




III davr-struktur davr deyiladi. Bu davr XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshiga to`g`ri keladi. Bu davrda A.M. Butlerovning organik birikmalarning tuzilish nazariyasi yaratildi. Bu davrga kelib organik kimyoda ko`p eksperimental materiallar to`planib qoldi. Masalan: Kekule tomonidan (1857y) uglerodning to`rt valentligi, Kuper tomonidan (1857y) uglerod atomlarining o`zaro birikib zanjir hosil qilishi v.h. Bundan tashqari shu davrgacha radikallar nazariyasi va tiplar nazariyasi bo`lgan. Shunday fanning yutuqlarini o`rganib A.M. Butlerov 1861 y organik birikmalar tuzilishining ilmiy nazariyasini bayon etdi. Bu nazariya «Murakab zarrachaning tabiati uning tarkibiga kiruvchi zarrachalarning tabiatiga, ularning miqdori va ximiyaviy tuzilishiga bog`liq» deb ta'riflanadi. Bu nazariyadan kelib chiqadigan xulosalar:

Organik moddalar molekulasidagi hamma atomlar bir biri bilan ma'lum izchillikda bog`langan. Molekuladagi atomlarning bir biri bilan bog`lanish tartibini ximiyaviy tuzilish deyiladi. Masalan:



2. Modalarn ing ximiyaviy xossalari molekulaning tarkibiga va kimyoviy tuzilishiga bog`liq. Bu qoida izomeriya xodisani tushuntirib beradi. Tarkibi bir xil, ammo tuzilishi xar xil moddalar izomerlar deyiladi. Masalan:




3. Reaktsiyalarda molekulalarning hamma qismi emas, balki ma'lum qismi o`zgaganligi tufayli moddaning ximiyaviy o`zgarishini o`rganish tufayli uning tuzilishini aniqlash mumkin.

4. Molekula tarkibiga kirgan atomlar o`zaro bir biriga ta'sir qiladi.

Bu nazariyaning rivojlanishiga V.V. Markovnikov, A.M. Zaytsev, E.E. Vagner va boshqalar katta hissa qo`shdi. Organik birikmalar xossasi ularning elektron va fazoviy tuzilishiga ham bog`liq. Shunga ko`ra A.M. Butlerovning ximiyaviy tuzilish nazariyasining hozirgi zamon ta'rifini quyidagicha ifodalash mumkin «Murakkab zarrachaning ximiyaviy tabiati uning tarkibiga, ximiyaviy, elektron va fazoviy tuzilishiga bog`liq.»

Organik birikmalarning uglerod skeleti bo`yicha klasifikatsiyasi. Uglerod atomlarining molekuladagi joylanishiga qarab quyidagicha bo`linadi.



**Organik birikmalarni funktsional guruxlar bo`yicha**

### klassifikatsiyalash.

Organik birikmalarning ximiyaviy xususiyatlarini belgilaydigan guruxlarga funktsional guruxlar deyiladi. Funktsional guruxlarga asoslanib organik birikmalar quyidagicha klassifikatsiyalanadi.

FUNKTSIONAL GURUX SINFLARNI		SINF NOMI UMUMIY FORMULASI
1. -F, -Cl, -Br, -I galogenlar	Galogenxosilalar	R-Hal
2. -OH, gidroksil	Spirtlar, fenollar	R-OH, Ar-OH
3. -OR, alkoksil	Oddiy efirlar	R-O-R
4. -SH, tiol	Tiollar	R-S-R
5. -SO <sub>3</sub> H, sulfo	Sulfokislotalar	R-SO <sub>3</sub> H
6. -NH <sub>2</sub> , NH, N, amino	Aminlar	R-NH <sub>2</sub> , (R) <sub>2</sub> NH, (R) <sub>3</sub> N
7. -NO <sub>2</sub> , nitro	Nitrobirikmalar	R-NO <sub>2</sub>
8. -C(O), karbonil	Aldegid, ketonlar	R-CH(O), R-C(O)-R
9. -COOH, karboksil	Karbon kislotalar	R-COOH

### Organik birikmalar nomenklaturasi.

Organik moddalarni nomlashda quyidagi nomenklaturalar ishlatiladi.

#### 1. Trivial nomenklatura (TN).

Ximiya fanining rivojlanishining dastlabki davrida moddalarni ularning xarakteristik belgilari: fizikaviy xolati, olinish usuli va tabiatda uchrashiga qarab ataganlar. Masalan: vino spirti, limon kislotasi, chumoli kislotasi (birinchi marta chumolilardan olingan). Shu asosida nomlash trivial yoki tarixiy nomenklatura deyiladi. Bu nomenklatura modda tuzilishi haqida hech qanday informatsiya bermaydi. Ximiyaviy tuzilishi aniqlanmagan murakkab moddalar alkaloidlar, antibiotiklar, vitaminlar va boshqa moddalarni nomlashda ishlatiladi, sababi uning aniqligi va qulayligidir.

#### 2. Ratsional nomenklatura (RN).

Lotincha ratsional soʻzi aql, idrok maʼnosini bildiradi. Bu nomenklatura boʻyicha har qanday organik birikma gomologik qatorning birinchi namoyandasining hosilasi deb qaraladi. Masalan, izobutan

Alkanlarning gomologi hisoblanadi va metanning (SN<sub>4</sub>) hosilasi deb qaraladi. Metandagi uchta vodorod metil guruxlarga almashgan deb faraz qilib trimetilmetan nomi bilan oʻqiladi.

Murakkab moddalar uchun ratsional nomenklaturani ishlatish qiyin.

#### 3. Xalqaro nomenklatura (XN).

1982 yili Shvetsariyaning poytaxti Jeneva shaxrida ximiyaviy jamiyatlar namoyondalarining Xalqaro kengashida sistematik nomenklatura (SN) yoki xalqaro nomenklatura (XN) qabul qilingan. 1947 yili Londonda sof va amaliy ximiya xalqaro ittifoqi (International Union of Pure and Applied Chemistry-IUPAC) kengashida mavjud nomenklaturalar qayta ko`rib chiqilib yangi xalqaro qoidalar ishlab chiqish haqida qaror qilindi.

Biz organik birikmalarni atashda asosan Xalqaro o`rinbosarli (XUN)nomenklaturasidan foydalanamiz.

Sistematik nomenklaturani ishlatishda bir qancha tushinchalar bor.

Organik radikal -molekulaning qoldig`i bo`lib, u molekuladan bir yoki bir necha vodorod atomlarini chiqarib yuborish natijasida hosil bo`ladi.

Masalan:

$\text{CH}_3$ -metil,  $\text{CH}_2=\text{CH}_2$  -vinil,  $\text{C}_6\text{H}_5$ -fenil va x.k.

Boshlang`ich struktura - nomlanayotgan birikmaning asosida yotadigan ximiyaviy strukturadir. Masalan: uglerod zanjiri, halqa va h.k.


Xarakteristik gurux - boshlang`ich struktura bilan bog`langan funktsional gurux.

O`rinbosar-boshlang`ich strukturaga birikkan funktsionol gurux yoki radikal.


Organik birikmalar nomini tuzishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi.

1. Katta xarakteristik guruxlarni aniqlash.
2. Boshlang`ich strukturani aniqlash.
3. Boshlang`ich strukturani nomerlash. Bunda katta xarakteristik gurux uglerodi kichik nomerga ega bo`lishi kerak.
4. Boshlang`ich struktura va katta xarakteristik gurux nomlarini aniqlash. Boshlang`ich strukturaning to`yinganlik darajasi: an-to`yingan, en-kush bog`ni, in-uch bog`ning mavjudligini ko`rsatadi.

5. O`rinbosarlarni nomlash Masalan:



Bu birikmada katta xarakteristik gurux karboksil ( $\text{COOH}$ ). Uchta uglerod zanjiri boshlang`ich struktura bo`ladi. Boshlang`ich struktura xarakteristik gurux bilan propan kislotasini beradi.




Kichik xarakteristik guruxlar alfavit tartibida nomlanadi. Bu moddani 2-amino-3-merkaptopropan kislotasi deb nomlash mumkin.


### Ximiyaviy bog`larning hosil bo`lishi va turlari.

Ximiyaviy bog`lanish to`g`risidagi mukammal nazariyasini Kossel va Lyuis (1916) yil deyarli bir vaqtda yaratdilar. Ularning fikricha, atomlar ximiyaviy bog`lanish hosil qilishda sirtqi elektron qavatlarni barqaror dublet yoki oktet xolatiga keltirishga intiladi.

Kossel elementlar barqaror oktet hosil qilish uchun yo elektron qabul qiladi, yoki elektron beradi deb qaraydi. Elektron bergan atom musbat, qabul qilgani esa manfiy ionga aylanadi va bu qarama-qarshi zaryadli ionlar elektrostatik tortish kuchi bilan o`zaro bog`lanadi. Masalan, natriy xloridning hosil bo`lishida natriy atomning yagona valent elektroni ettita valent elektroni bo`lgan xlor atomiga o`tadi.



Elektron yo`qotgan natriy atomida sakkiz elektronli qavat oktet ochilib qoladi va u musbat zaryadlangan ionga aylanadi, xlor atomi bitta elektron qabul qilib, elektron qobiqdagi elektronlar sonini sakkizga o`tkazadi va manfiy zaryadlangan ionga aylanadi. So`ngra Na va Cl—elektrostatik tortishish kuchi bilan o`zaro bog`lanadi.



Asosida ionlarning elektrostatik tortilishi yotgan ximiyaviy bog`lanish ion yoki elektrovalent bog`lanish ba'zan geteropolyar bog`lanish deyiladi. Ion xolida bo`lishi mumkin bo`lmagan ko`pgina organik birikmalarda, shuningdek ba'zi anorganik birikmalarda (masalan: Cl<sub>2</sub>, H<sub>2</sub>, O<sub>2</sub>, F<sub>2</sub>) ximiyaviy bog`lanish qanday yuzaga keladi, degan savolga Kossel nazariyasi javob bera olmadi.


Lyuis nazariyasiga ko`ra, barqaror elektron dublet yoki oktet qavat hosil bo`ladi. Shunga ko`ra, bu nazariya ko`pincha elektron juftlar nazariyasi deb yuritiladi. Bu nazariyaga binoan, vodorod va kislorod molekularining hosil bo`lishini quyidagicha tasvirlash mumkin.




Natijada, har bir atom atrofida barqaror dublet yoki oktet qavat hosil bo`ladi. Uglerodgacha joylashgan, ya'ni I, II, III grupp elementlari oson elektron berib kationlarga aylansa, ugleroddan keyin joylashgan, ya'ni V, VI, VII grupa elementlari oson elektron qabul qilib, anionlarga aylanadi. Uglerodning markaziy holatda joylashishi shunga olib keladiki, uning atomi elektron berishga ham, elektronlarni qabul qilib anionlarni hosil qilishga moyil bo`lmaydi. Bu uglerod atomi valent elektronlarning musbat zaryadlangan atom yadrosiga yaqin turishi, valent elektronlar atom yadrosidan faqat ikkita elektronli qavat bilan ajralganligi bilan bog`liqdir.

Uglerod atomi elektron qobig`i tuzilishining o`ziga xos xususiyatlariga ko`ra organik birikmalarda ximiyaviy bog`lar elektronlarni qabul qilish yoki berish hisobiga emas, balki umumlashgan elektronlar jufti hisobiga hosil bo`ladi.

Uglerod atomi oson elektron beradigan elementlar bilan ham oson elektron qabul qiladigan elementlar bilan ham okted hosil qiladi:



Bunday ifodalash xajm jixatdan noqulay bo`lganligi uchun elektronlar juftini chiziqcha bilan belgilash qilingan:



Shunday qilib, yonma-yon turgan atomlar uchun umumiy bo`lgan bitta, ikkita yoki uchta elektronlar jufti orqali vujudga keladigan ximiyaviy bog`lar g o m e o p o l y a r yoki k o v a l e n t bog`lar deb ataladi.

Kovalent bog`ning xususiyatidan biri uning qutbligidir. Kovalent bog`lanishga bo`linadi. Bog`lanishning qutbligi qo`shni atomlar orasida elektronlarning taqsimlanishini ko`rsatadi, uning qiymati SI sistemasi bo`yicha kulon/ metr (kl/ m) bilan ifodalaniladi. Agar molekula hosil qilayotgan atomlarning elektromanfiyligii bir-biridan ko`proq farq qilsa, umumiy elektronlar buluti yadrolar o`rtasida bir tekis taqsimlanadi. U elektromanfiyligi katta bo`lgan atomga tomon siljiydi. Natijada, molekulaning bir qismi nisbatan manfiy, ikkinchi qismi esa nisbatan musbat zaryadlanadi. Bunday bog`lanish qutbli kovalent bog`lanish deyiladi.




Umumlashgan elektronlarning siljish darajasini aniqlash uchun dipol momenti ( $\mu$ ) dan foydalaniladi. Zaryadlar miqdori ( $e$ ) ning shu zaryadlar orasidagi masofa ( $l$ ) ga ko`paytmasi dipol momenti deyiladi  $\mu = el$ .

Suv molekulasida uchun  $l = 0,384 \times 10^{-8} \text{ m}$   $e = 4,8 \times 10^{-20} \text{ elektrostatik zaryad birligi ( e.z.b.)}$   $= 4,8 \times 10^{-20} ( \times ) 0,384 \times 10^{-8} (= 1,84 \times 10^{-28} \text{ e.z.b. sm}$


Dipol momentining birligi qilib debay D qabul qilingan.  $1 \text{ D} \approx 10^{-30} \text{ e.z.b. sm}$  ga teng. Demak, suvning dipol momenti  $1,84 \text{ debayga}$  teng. Shuni ham qayd qilishimiz lozimki, modda molekulasining qutblanganlik darajasi uning reaksiyaga kirishish qobiliyati bilan uzviy bog`langan. Kovalent bog`ning ko`rinishlaridan biri k o o r d i n a s i o n bog`dir. Ba'zi atomlarda erkin, lekin umumlashgan elektronlar jufti bor. Masalan, birlamchi amin molekulasidagi azotda bitta, dietil efir molekulasidagi kislorod ikkita umumlashgan erkin jufti bor. Birlamchi aminga yoki dietil efirga kuchli protonli kislotalar (masalan, xlorid kislotasi) ta'sir ettirilsa, elektronidan ajralgan vodorod atomining azot yoki kislorod

atomining erkin elektronlar juftiga birikish sodir bo`ladi. Natijada, alkilammoniy xlorid va dietilokosoniy xlorid hosil bo`ladi:



донор акцептор

алкиламмоний хлорид.




Донор акцептор

диэтилокосоний хлорид.


Bir molekulaning erkin elektronlar jufti hisobiga hosil bo`ladigan kovalent bog`ning bu turi k o o r d i n a s i o n b o g` deyiladi. Erkin elektronlar juftini bergan atom yoki ionlar d o n o r, ikkinchisi esa a k s e p t o r deyiladi. Shuning uchun ham bu bog`lanish yana d o n o r- a k s e p t o r bog`lanish ham deb yuritiladi.

Semipolyar (yarim polyar) bog`lanish-kovalent va elektrovalent bog`lar yig`indisidan iborat bog`lanishdir. Semipolyar bog`ni ko`pincha kuchli qutblangan kovalent bog` xam deb yuritiladi. Bu bog` koordinatsion bog` kabi atom (donor) ning erkin elektronlar jufti hisobiga hosil bo`ladi, ammo semipolyar bog`da erkin elektronlar jufti ikkinchi atom (aktseptor) atomga tomon kuchli siljigan bo`ladi. Semipolyar bog` nitrobirikmalarda mavjuddir. Oktet nazariyasiga asosan nitrobirikmalardagi nitro-gruppa quyidagicha tuzilgan.



Nitrogruppaning bu tuzilish formulasiga ko`ra, azot bilan birikkan kislorod atomining biri qo`sh bog` bilan, ikkinchisi esa yarim polyar bog` bilan bog`langandir. Bu esa nitrobirikmalarning qutblanganligini ko`rsatadi.

Keyingi tekshirishlar asosida nitrogruppada har ikkala kislorod atomlari o`zaro teng manfiy zaryadga ega ekanligini bu esa elektronlarning quyidagicha siljish hisobiga hosil bo`lishini ko`rsatadi.



## XIMIYAVIY BOG'LARNING ELEKTRON NAZARIYASI.

Organik ximiyada kvant mexanikasining tuzilish nazariyasining va ximiyaviy bog'lar mohiyatini bilishda yangi davr bo'ldi. Kvant mexanikada atom tuzilishi haqidagi tushunchalarni tubdan o'zgartirib yubordi. Bor nazariyasi bo'yicha, vodorod atomi musbat zaryadlangan yadrodan iborat bo'lib, uning atrofida aylanma orbitalini bo'ylab  $0,529A$  ( $0,0529$  nm) radiusida nuqtali zaryad ko'rinishida elektron aylanib yuradi deyilsa, kvant mexanikasi nuqtai nazaridan vodorod atomining tuzilishi boshqacha( elektron juda katta tezlik bilan harakat qiladi. Bunday harakat qilganda elektron go'yo atom yadrosini ma'lum masofada o'rab turuvchi manfiy elektron bulutini hosil qiladi. Bunday bulutning zichligi bir xil emas( elektronning bo'lish ehtimolligi ko'p bo'lgan joyda zichlik katta, elektron kam bo'ladigan joyda zichlik ham kam bo'ladi. Elektron bulutining zichligi ko'rsatilsa, u yadroning yonida nolga teng bo'ladi. Keyin tez ortib boradi va yadroga nisbatan ( $0,0529$  nm) masofada maksimumga o'tadi, so'ngra esa asta sekin kamayadi.


Ma'lumki elektron bir vaqtning o'zida xam zarracha ham to'lqin hossalari ega. Elektronning yadro atrofidagi harakatini ifodalash uchun tyolqin funktsiyasi  $\Psi(x,u,z)$  dan foydalaniladi. Bu erda  $x,u,z$ -fazoviy koordinatalardir. Bu funktsiyaning kvadrat moduli  $(\Psi)^2$  elektronning elementar hajmida bo'lish ehtimolligini aniqlasa, funktsiyaning o'zi orbitalni tasvirlaydi. Elektronning bo'lish ehtimolligi maksimal darajada bo'lgan fazo a t o m o r b i t a l (AO) deyiladi.

Vodorod atomi tuzilishining Bor bo'yicha sxemasi (a) uning zamonaviy tushunchaga ko'ra tuzilish sxemasi (b) va elektron zichligining atom yadrosi orasidagi masofaga bog'liq grafigi (v). Bu grafikning absitstalar o'qida atom markazi orasidagi masofa  $A$  da ordinatalar o'qida esa elektron buluti zichligining xarakterlovchi qiymatlari qo'yilgan.



Orbitalar va ularni egallaydigan elektronlarning holati kvant sonlari bilan belgilanadi. Bosh kvant soni «n» orbital energiyasining darajasini xarakterlaydi. Orbital kvant soni «e» orbitalning shaklini belgilaydi.  $e = 0$  bo'lganda AO shar shakliga ega bo'ladi va u S-orbital deb ataladi.  $e=1$  bo'lganda AO gantelsimon ( sakkiz raqamiga o'xshash( shakliga ega va u p -orbital deb ataladi. Magnit kvant soni orbitalning fazoda yo'nalishini ko'rsatadi. Elektronning yuz yoki atrofida aylanishi spin deb atalib, u spin kvant soni bilan xarakterlanadi. Spin kvant soni quyidagi ikki qiymatning:  $(+1/2)$  yoki  $(-1/2)$  biriga teng bo'ladi. Hozirgi vaqtda energiyasi yaqin bo'lgan xar-xtl atom orbital (AO) lar o'zaro ta'sirlashib bir xil energiyali gibril orbitallarni hosil qiladi deb faraz qilinadi. Organik ximiyada uglerod atomining gibril orbitallari degan tushunchadan keyin foydalaniladi. Buni biz quyida ko'rib chiqamiz.

## UGLEROD ATOMINING ELEKTRON TUZILISHI.



Oddiy kovalent bog`ning elektron tuzilishi. Uglorod atomining tuzilishi. Organik birikmalarning nihoyat darajada o`ziga hosligi va ko`p sonli bo`lishning sababi avvalo uglorod atomining tuzilishiga bog`liqdir.



Qo`zg`almagan uglorod atomining konfiguratsiyasi quyidagicha ifodalaniladi:




Pastdagi to`rtburchak bilan uglorod atomining birinchi elektron qobig`i tasvirlangan. Bu qobig`dagi ikkita elektron qarama-qarshi yo`nalishdagi ikkita strelkalar bilan belgilangan. Bu ikki elektron juftlashgan bo`lgani uchun boshqa atomlarning elektronlari bilan ximiyaviy bog`lar hosil qilish xosasiga ega emas. Uglorod atomining birinchi elektron qobig`i inert gaz geliyning elektron qobig`iga aynan o`xshashdir. Yuqoridagi to`rtta to`rtburchaklar bilan ikkinchi elektron qobig`i ifodalangan. Qo`zg`almagan uglorod atomining bu qobig`ida ikkita juftlashgan va ikkita juftlashmagan elektronlar joylashgan bo`ladi. Juftlashmagan elektron har bir to`rtburchakdagi faqat bitta strelka bilan tasvirlanadi. Uglorod atomi boshqa atomlar bilan yoki o`zaro ximiyaviy bog` hosil qilganda qo`zg`almagan holatdan qo`zg`algan holatga o`tadi, bunda ikkinchi elektron qobig`dagi juftlashgan ikkita elektron juftlashmagan holatga o`tib, uglorod to`rt valetlikni namayon qiladi. Qo`zg`algan uglorod atomining elektron konfiguratsiyasi quyidagicha ifodalaniladi:



Demak, uglorod atomi qo`zg`algan holatda tashqi qavatida shar shaklidagi bitta S-elektron va uch xil o`zaro perpendikulyar yo`nalishda joylashgan

(1-rasm, a va b) gantelsimop uchta r-elektronlarga ega bo`ladi.



1-rasm. s-Elektron (a), r elektronlar (b) va gibrirlangan elektron (v) bulutlarning sxemasi, ularning uzun o`qlari uchta o`zaro perpendikulyar yo`nalishlarda yotadi.

Birikmalarning hosil bo`lishida elektronlarning gibrirlanishi ro`y beradi. Masalan, qo`zg`algan uglerod atomining bitta hamda uchta-orbitallari (hammasi bo`lib to`rtta AO) qo`shilib, to`rtta oraliq orbital hosil bo`ladi va u gibril orbital yoki gibrirlangan elektron buluti deb ataladi (gibril-qo`shilish, chatishish degan ma'noni bildiradi.) Z-uglerod atomidagi bitta S va uchta r orbitallarning qo`shilishidan hosil bo`lgan to`rtta gibril orbital bir xil shaklga ega.


(1-rasm v). Gibril orbitallarning bir tomonida elektron buluti ko`p, ikkinchi tomonida esa kam. Gibril orbital boshqa orbitalni ana shu elektron buluti ko`p tomoni bilan qoplaydi. Natijada, qoplanish maksimal darajada bo`ladi, yadrolar o`rtasida

## 2-rasm.

elektron bulutning zichligi ortadi, demak, yuzaga keladigan bog` xam barqaror bo`ladi. 2-rasm A da uglerodning S-va R-orbitallaridan to`rtta gibril orbitalning hosil bo`lish sxemasi keltirilgan. To`rttala gibril orbital tetra edr markazidan uning uchlariga tomon yo`naliyu joylashganda ularning o`zaro ta'sirlanishi kam bo`ladi. Ikkinchidan, gibril orbitallar va vodorodning IS-orbitallaridan metan hosil bo`lganda gibril orbitallarning tetraedik joylashishi metan molekulasidagi vodorod atomlarning bir-biridan baravar uzoqlikda turishini ham ta'minlaydi (2-rasm, B). Demak, ularning o`zaro itarilish energiyasi xam eng kam bo`ladi. Gibril orbitallarning yo`nalishlari orasidagi burchaklar metanda  $109^{\circ}28'$  ga teng (2-rasm).


Uglerod atomining yuqorida bayon qilingan gibrirlanishi Sr yoki tetraedrik gibrirlanish deb ataladi. Tetraedrik gibrirlanishga ega bo`lgan uglerod «uglerod atomi birinchi valetlik xolatida » deyiladi.

Quyida H-H, C-H, C-C atomlari orasida hosil bo`ladigan oddiy bog`ning elektron sxemasi keltirilgan (3-rasm a, b, v.). Agar H-H atomlari orasidagi oddiy bog` ikkita shar shaklidagi S-orbitallarning qoplanishi hisobiga hosil bo`lsa (3-rasma), C-H atomlari orasidagi oddiy bog` esa uglerodning gibril orbitali o`zining elektron buluti ko`p tomoni bilan vodorodning s-orbitalini qoplashi hisobiga hosil bo`lgan (3-rasm, b).



3-rasm.  $\sigma$ -Bog`larning hosil bo`lishida orbitallarning o`zaro qoplanishi.  
a-H-H bog`i; b-H-C bog`i; v-C-C bog`i

Uglerodning atom lari o`zaro bo'langanda (masalan, etan molekulasining hosil bo`lishi) uglerod atomlarining gibril orbitallari bir-birini qoplaydi va ( $\sigma$ -bog`ni hosil qiladi. (3-rasm, «v» va 4-rasm). Etan molekulasida qoplangan gibril orbitallar o`qlari bilan boshqa gibril orbitallar o`qlari orasidagi burchaklar  $109^{\circ} 28^1$  ga teng.



4-rasm

Propan va undan keyin keladigan to`yingan uglevodorodlarda xam C-H bog`lar o`rtasida burchak  $109^{\circ} 28^1$  ga teng, barcha C-H va C-C bog`lar -  $\sigma$ -bog`lardir. ( $\sigma$ -bog`ni xarakterlovchi eng asosiy hususiyatlaridan biri shuki, ularni hosil qiluvchi elektronlar bulutining eng ko`p qoplanish qismi atomlar markazini birlashtiruvchi to`g`ri chiziqda yotadi.

### QO`SH VA UCH BOG`LARNING ELEKTRON TUZILISHI.

Qo`sh va bog` tutgan birikmalarda uglerod-uglerod orasidagi takrorlangan kovalent bog`larning elektron tuzilishi bir xil emas. Masalan, etilen molekulasida har bir uglerod atomining to`rtta valent elektronlardan bitta S-elektron (hammasi


bo`lib uchta AO) gibrirlanishda ishtirok etadi. Natijada, uchta bir xil gibrirl orbital hosil bo`ladi. Har bir uglerod atomida bittadan elektron (bittadan-r AO) o`zgarmsdan «sof» xolda qoladi (2-jadval).

2- Jadval  
Turli uglerod atomlaridagi elektron bulutlar.

Uglerod atomi	elektron bulutlar			
Qo`zg`atilgan, dastlabki holat	S	p	p	p
Qo`zg`atilgan, teyingan birikmalarda	Sp <sup>3</sup>	Sp <sup>3</sup>	Sp <sup>3</sup>	Sp <sup>3</sup>
Qo`zg`atilgan, etilen birikmalarida	Sp <sup>2</sup>	Sp <sup>2</sup>	Sp <sup>2</sup>	p
Qo`zg`atilgan, atsetilin birikmalarda	Sp	Sp	p	p

Hosil bo`lgan gibrirl orbitallar bir-biridan 120 burchak ostida joylashganligidagina, ularning bir-biridan itarilishi minimal darajada bo`ladi. Tabiiyki bu orbitallar fazoviy emas, balki tekislik-da joylashadi ( 5-rasm ). Bunday gibrirlanish Sp<sup>2</sup> , shu holatdagi uglerod atomi esa «ikkinchi valent holatida» deyiladi. Ba'zi hollarda Sp<sup>2</sup>-trigonal gibrirlanish deb ham ataladi ( 5-rasm). Sp<sup>2</sup>-gibrirlangan ikkita uglerod atomi bir-biri bilan bog`langanda

gibrirlorbitallar bir-birini qoplaydi va (σ-bog` hosil bo`ladi (5-rasm ). Etilen molekulasida bir tekislikda joylashgan bunday bog`lardan beshtasi mavjud. Har qaysi atomi qolgan bittadan «sof» p-elektronlar etilen joylashgan tekislikda perpendikulyar yo`nalishda bir-birini qoplab,




5-rasm Etilen bog`larning tuzilish sxemasi (B).

Uglerod atomlari orasidagi ikkinchi bogni xosil kiladi ( 5-rasm).

Bu bog`ning π-bog` deb ataladi. Etilen molekulasidagi σ- va π-bog`larning joylashishi 5-rasmda ko`rsatilgan. Ammo p- elektronlarning bir-birini qoplash darajasi atom yadrolarini biriktiruvchi to`g`ri chiziq yo`nalishida ta`sirlashuvi bulutlarnikidan kam bo`ladi. Shuning uchun σ - bog` π-bog`ga

nisbatan bo'shroq bo'ladi. Shunga qaramay, bunday bog'lanish vujudga kelgach, atomlar bir-biriga yanada ko'proq yaqinlashadi. Etan molekulasidagi uglerod atomlari yadrolari orasidagi masofa 0,154 nm, etilen molekulasida esa 0,134 nm ga teng.

Atsitelen  $H-C \equiv C-H$  dagi kabi uch bog'larda gibridlanish bitta va bitta p-elektronlar (hammasi bo'lib ikkita AO) hisobiga sodir bo'ladi. Bunday gibridlanish p-gibridlanish yoki digonal gibridlanish deyiladi. Sp-gibridlanish holatidagi uglerod atomi «uchinchi valentlik holatida» deb ataladi. Hosil bo'ladigan ikkita bir xil gibrid orbitallari bilan  $180^\circ$  burchak ostida joylashadi. (6-rasm, A). Bu gibrid orbitallardan atsitelen molekulasida hosil bo'lishida ular  $\sigma$ -bog' hosil qilib bog'lanadi.



6-rasm. Atsetilen molekulasining elektron tuzilishi.

Har bir uglerod atomidan gibridlanmay qolgan ikkitadan «sof» -elektronlar (2-jadvalga qarang) bir-birini o'zaro perpendikulyar tekislikda qolaydi va ikkita-bog'ni hosil qiladi 6-rasm. Demak, atsetilen molekulasidagi uglerod atomlarini biriktiruvchi uchta bog'ning biri  $\sigma$ -bog', qolgan ikkitasi esa  $\pi$ -bog'dir.  $\sigma$ -bog' gibridlangan-elektronlardan,  $\pi$ -bog'lar esa gibridlanmagan «sof» p-elektron (p-AO) larning ikki juftdan hosil bo'ladi.

Shunday qilib, ximiyaviy bog'lar haqidagi yangi tushunchalar tuzilish nazariyasiga tarkibiy qism bo'lib kiradi va molekula tuzilishi deganda atomlarning biror miqdordagi ximiyaviy moyilligi yordamida sodir bo'ladigan ma'lum tartibdagi birikishigina emas, balki fazoda atomlarning o'zaro joylashuvi, ularni biriktiruvchi bog'larning elektron tuzilishi, shuningdek, elektron zichligining biror tartibda taqsimlanishi ham tushuniladi.

#### Molekulada atomlarning o'zaro ta'siri.

Organik birikmalarning xossalarning o'rganishda faqat ularning elektron tuzilishini emas, balki molekulasidagi atomlarning o'zaro ta'sirini bilish ham muximdir.

Molekuladagi atomlarning o'zaro ta'siri haqidagi ta'limot A.M. Butlerov tomonidan yaratilgan bo'lib, keyinchalik V.V. Markovnikov va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan. Xozirgi vaqtda atomlarning o'zaro ta'siri ma'lum. Atom yoki atomlar guruxlarining ta'siri molekulada elektron zichlikning qayta taqsimlanishi bilan tushuntiriladi.


Induktiv effekt. Agar molekulada elektro manfiyligi yuqori bo`lgan atom yoki atomlar guruxi bo`lsa,  $\sigma$ -bog`ning elektronlar jufti shu atom yoki atomlar guruxi tomon siljiydi. Masalan:



Aksincha, elektronlar jufti atom yoki atomlar guruxidan uglerod atomi tomon siljigan bo`lishi ham mumkin. Masalan:




Molekuladagi atomlarning o`zaro ta'siri natijasida vujudga keladigan elektron zichlikning bunday qayta ta'simlanishlar hodisasi induktiv effekt ( I ) deyiladi.




Elektron bulutlarning faqat  $\sigma$ -bog`lar bo`ylab siljishi natijasidagina induktiv effekt boshqa effektlardan farq qiladi. O`rinbosar induktiv effektning yo`nalishi sifat jixatidan vodorod atomi bilan taqqoslash orqali baholanadi. Vodorod atomining induktiv effekti 0 ga teng deb qabul qilingan (C-H bog`i amalda qutblanmagan deb qaraladi.) Induktiv effekt musbat (+ I ) bo`ladi. Atom yoki atomlar guruxi elektron bulutlarini o`zidan uglerod atomi tomon siljitsa induktiv effekt musbat (+ I ) bo`ladi.

Masalan:



Aksincha, atom yoki atomlar guruxielektronlar guruxini o`ziga tortsa, induktiv effekt manfiy (-I) bo`ladi. Masalan:



Induktiv effekt uglerod zanjiri bo`ylab so`nib boradi(




Element davriy sistemada qancha o`ngda va yuqorida joylashgan bo`lsa, uning induktiv ta'sir kuchi ( -I ) shunchalik katta bo`ladi. Organik birikmalarning xossalari, organik reaksiyalarining borish mexanizmlari kabi qator muhim masalalar induktiv effekt bilan bog`liq.

Mezomer effektни bayon qilishdan oldin ochiq va yopiq zanjirli ta'sirlashgan sistemalar bilan tanishib chiqamiz.

#### Ochiq zanjirli o`zaro ta'sirlashgan sistemalar.


Oddiy va qo`sh bog`lar navbatma-navbat keladigan birikmalar o`zaro ta'sirlashgan sistemalar deyiladi. O`zaro ta'sirlashgan sistemalar ochiq zanjirli va yopiq zanjirli bo`ladi. Ochiq zanjirli o`zaro ta'sirlashgan sistemalar oddiy misol qilib butadien -1,3 ni ko`rsatish mumkin. Elektronlarning difraktsiyasini tekshirish usuli butadien -1,3 molekulaidagi -bog`lar bitta tekislikda yotishini ko`rsatadi. Hamma uglerod atomlari  $Sp^2$  ( gibrirlangan holatda bo`ladi. Har bir uglerod atomining gibrirlashmagan p-orbitalli  $\sigma$ -bog`lar tekisligiga perpendikulyar hamda o`zaro bir-biriga paralel joylashgan bo`ladi. Bunday sharoitda C-1 va C-2, C-3 va C-4 hamda C-2 va C-3 atomlarning p-AO o`zaro qoplanadi. C-2 va C-3 p-AO qo`shimcha qoplanishi hisobiga qo`sh bog`larning o`zaro ta'sirlanishi sodir bo`ladi. O`zaro ta'sirlanishning bu turi ( $\pi, \pi$ -ta'sirlanish deyiladi, chunki ( $\pi$ -bog`larning orbitallari o`zaro qoplanadi. O`zaro ta'sirlanish natijasida d e l o k a l l a s h g a n-sistema vujudga keladi.



7- rasm. Butadienni-1,3 ning atom-orbital modeli.

Organik birikmalarda (, (-ta'sirlanishdan tashqari r, (-ta'sirlanish ham bo`lishi mumkin. r, (-ta'sirlanishda qo`sh bog`ning-orbitali bilan unda bitta (-bog` bilan ajralgan r -orbital o`zaro ta'sirlashadi.

Masalan,  $CH_2=CH-X$  bu erda  $X=$  galogen,  $NR_2$ , - OR va boshqalar bo`lishi mumkin:




O`zaro ta'sirlanish energetik jihatdan foydali protsess, chunki  $\pi$ -bog`lar elektronlarining delokallanishida energiya ajralib chiqadi. O`zaro ta'sirlashgan sistemalarhamma vaqt kamroq energiya saqlaydi, ya'ni ajratilgan qo`sh bog`lar tutgan shunga o`xshash sistemalar nisbatan ichki energiyasi kam. Shu tufayli o`zaro ta'sirlashgan sistemalar yuqori termodinamik turg`unlikka ega. Termodinamik turg`unlik darajasini miqdoran topish uchun hamma lokallashgan  $\pi$ -bog`lar energiyasidan o`zaro ta'sirlashgan bog`lar energiyasini ayirish kerak. Bu farq o`zaro ta'sirlanish energiyasi (delokallanish energiyasi) deyiladi. O`zaro ta'sirlanish energiyasi butadien -1,3 uchun katta emas, u taxminan 15 k Dj/ nolga teng. O`zaro ta'sirlashgan zanjirni uzunligi ortgan sari  $\pi$ -bog`larning delokallanishi ham kuchayadi, ta'sirlanish energiyasi va birikmaning termodinamik turg`unligi ham oshadi.  $\rho$ ,  $\pi$ - ta'sirlanishi yana vinil xlorid

$\text{CH}_2=\text{CHCl}$  va karboksilat ioni  $\text{C}=\text{O}$  misolida ko`rish mumkin.  $\alpha$ ,  $\beta$ -ta'sirlanishni esa (, ( to`yinmagan karbonalli birikmalarda ko`rish mumkin. O`zaro ta'sirlashgan polienlardan tabiatda eng ko`p tarqalgani karotinoidlar (karotinlar, A vitamini, retinol)dir.

#### Yopiq zanjirli o`zaro ta'sirlashgan sistemalar.

$\pi$ ,  $\pi$  va  $\rho$ ,  $\pi$ -ta'sirlanish faqat ochiq zanjirli birikmalardagina emas, balki siklik birikmalarda ham mavjuddir. O`zaro ta'sirlashgan qo`sh bog`lar tutgan siklik birikmalar ichida aromatik uglevodorodlar va ularning hosilalari o`zlarining hususiy hossalari bilan ajralib turadi. Aromatik uglevodorodlar elektron tuzilishning o`ziga hosligi benzolning atom-orbital modelida yaqqol namayon bo`ladi. Oltita  $\text{Sp}^2$ -gibridlangan uglerod atomlari benzol molekulasining karkasini (qobirg`asini) tashkil etadi. Hamma C-C va C-H bog`lar bir tekislikda yotadi. Gibridlashgan oltita p-AO lar molekula tekisligiga perpendikulyar, o`zaro esa paralel joylashgan (1-rasm).




8-rasm. Benzolning atom-orbital modeli.


Shuning uchun ham bir p-AO ikkita qushni p-AO bilan teng darajada qoplanishi mumkin, xolos. Shunday qoplanish natijasida delokallashgan umumiy ( $\pi$ -sistema vujudga kelib, uning eng ko`p elektron zichlikka ega bo`lgan qismi ( $\sigma$ -skelet tekislining yuqorisiga va pastiga to`g`ri keladi hamda xalqaning hamma uglerod atomlarini qamrab oladi.(8-rasm). Benzol molekulasida ( $\pi$ -elektron

zichlikning bir xil taqsimlanganligi ko'rsatish uchun uning struktur formulasi ko'pincha ichida doira chizilgan olti burchak ko'rinishida tasvirlanadi (8-rasm). Benzol molekulasidagi uglerod atomlari orasidagi masofalar teng bo'lib, u ham o'z navbatida 0,139 nm ga teng. Benzol yuqori termodinamik turg'unlikni namayon qiladi. Benzolning real molekulasini uning gidrogenlanish issiqligini yoki hosil bo'lish energiyasini nazari hisoblaganda kutilgan ma'lumotlarga nisbatan anchagina kichik energiya zapasiga ega. Benzolning o'zaro ta'sirlanish energiyasi (mezomeriya energiyasi) 227,8 k Dj/mol. 1931 yildayoq nemis olimi E Xyukkel kvantmexanikaviy hisoblarga asoslangan holda o'zaro ta'sirlashgan qo'sh bog'li yassi xalqalardagi yopiq elektron qobiq faqat oltita ( $\pi$ -elektronlardagina hosil bo'lib qolmay, balki elektronlar soni 2, 10, 14, 18 ga teng bo'lganda ham hosil bo'lishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Xyukkel qoidasiga muvofiq  $4n-2$   $\pi$ -elektron saqlagan, o'zaro ta'sirlashgan bog'lar tutgan hamma xalqalar termodinamik turg'unlikka ega bo'ladi. Bu erda  $n=0,1,2,3$  va boshqalar.


Benzolning yuqori termodinamik turg'unligini aniqlaydigan hamma belgilar a r o m a t i k l i k tushunchasi bilan birlashtirilgan. Agar birikma yassi yopiq xalqaga va xalqaning hamma atomlarini qamrab olgan hamda  $(4n+2)$   $\pi$ -elektronlar saqlagan o'zaro ta'sirlashgan  $\pi$  elektronli sistemaga ega bo'lsa, bunday modda aromatiklikka ega bo'ladi. Xyukkel qoidasiga ko'ra eng oddiy aromatik sistema 2  $\pi$ -elektronli siklopropeniliy kationi bo'lishi kerak. Haqiqatdan ham oxirgi vaqtda bu yangi aromatik sistemaning ba'zi bir tuzlari va hosilalari sintez qilindi.



Kondensirlangan benzol xalqalaridan tashkil topgan naftalin, antratsen va fenatren kabi birikmalar aromatiklikning hamma belgilariga javob beradi.





Naftalin



10 ta ( $\pi$ -elektron ( $n=2$ ))

Naftalinning mezomeriyasi 255 k Dj/mol.



Antratsen	Fenantren
14 ta ( $\pi$ -elektronlar ( $pq3$ ))	14 ta ( $\pi$ -elektronlar ( $n=3$ ))
Mezomeriya energiyasi 351,0 k Dj/(mol)	Mezomeriya energiyasi 384,5 kDj/mol

Xalqaning hamma uglerod atomlari Sp-gibridlangan holatda bo'lgani uchun bu birikmalar yassi ( $\sigma$ -skeletga ega. ( $\pi$ -elektronlar soni Xyukkel qoidasiga javob beradi. ( $\pi$ -elektron buluti xalqaning hamma uglerod hamma uglerod atomlarini qamrab olgan. Birikmalarni aromatiklik darajasi bo'yicha qiyoslash uchun bitta ( $\pi$ -elektronga to'g'ri keladigan mezomeriya energiyasining qiymatidan foydalaniladi. Shu nuqtai nazardan arenlar sinfining birinchi namoyandasi benzol eng ko'p aromatiklikka ega. Aromatiklik xossasi bo'yicha benzoldan keyin fenantren, naftalin va antratsen joylashgan bo'lib, bu birikmalarda ( $\pi$ -elektronlar buluti benzoldagidek bir tekis taqsimlanmagan.


### Mezomer effekt.

Mezomer effekt -o'rinbosar elektron ta'sirining ( $\pi$ -bog'larning sistemasi bo'yicha uzatilishidir. Mezomer effekt o'zaro ta'sirlashgan sistemalarda mavjud bo'ladi. Biz yuqorida ochiq zanjirli va yopiq zanjirli o'zaro ta'sirlashgan sistemalar bilan tanishdik. Mezomern effektning yuzaga kelish sharti molekulada yo  $\pi, \pi$ -yoki  $p, \pi$ -ta'sirlanishning mavjud bo'lishidir.

Shunday qilib, biz yuqorida ko'rib chiqqan butadien -1,3 vinilxlorid, benzol, naftalin molekulalarida  $\pi, \pi$ - va  $p, \pi$ -ta'sirlanishlar mavjuddir. Shu tufayli butadien-1,3 galogenlarni, galogenid vodorodlarni asosan 1,4 xolatga biriktiradi: vinil xlorid esa galogeni almashtirish reaksiyasiga kirish o'rniga polimerlanib ketadi: benzol va naftalin biriktirish reaksiyasi o'rniga o'rin olish reaksiyasiga oson kirishadi.


Masalan: A-atom yoki atomlar gruppasi o'zining umumlashmagan elektron juftlarini qo'sh bog' tomon siljitadilar.

Xlor atomi o'zining umumlashmagan elektronlar juftini qo'sh bog' tomon



siljitadi. Bunday siljitish natijasida molekulaning bir qismida (+) ikkinchi qismida esa (-) zaryadlar yig'iladi. Elektronlar juftini bergan xlor atomining valetligi ortadi. O'rinbosar ta'sirlashgan sistemaning elektron zichligini oshiradi. Bunday effekt +M deyiladi.


B-atom yoki atomlar gruppasi qo'sh bog'ning elektron bulutini o'ziga



tortadi. Masalan:

Mezomer effekt musbat (+M) va manfiy (-M) bo`ladi.

Bunday siljish natijasida ham yuqoridagi kabi molekulaning bir qismida (+), ikkinchi qismida (-) zaryadlar yig`iladi. O`rinbosar ta'sirlashgan sistemadagi elektron zichlikni kamaytiradi. Bunday effekt (-M)



Musbat mezomer (+M) namoyon qiladigan o`rinbosarlarga galogenlar kiradi. Ular yana elektronodonlar o`rinbosarlar ham deyiladi.

Manfiy mezomer (-M) namoyon qiladigan o`rinbosarlarga karbonil gurux C=O, karboksil gurux-COOH, sulfo guruxi-SO<sub>3</sub>H, nitroguruxi -NO<sub>2</sub> va boshqalar kiradi. Ular yana elektronoaktseptor o`rinbosarlar deb ham ataladi.

Kafedra yig`ilishida  
tasdiqlangan  
Bayon №\_\_ \_\_\_\_

«Organik kimyo» fanidan farmatsiya fakulteti uchun  
№ 3 ma'ruza matni

Mavzu: Tetragonal uglerod atomidagi radikal o`rin olish reaksiyalari (SR)

Davom etishi: 2 soat

Maqsad: Talabalarni alkan va sikloalkanlarning tuzilishi bilan bog`lik bo`lgan tetragonal uglerod atomidagi boradigan radikal o`rin olish reaksiyalari, konformatsiya xaqidagi tushunchalar bilan tanishtirish.

Reja:

Alkanlarning struktur va burilish izomeriyasi.

Alkanlar va sikloalkanlarning olinish usullari.

Alkanlarning reaksiyon qobiliyati.

C-H bog`ning uzilishi bilan boradigan radikal o`rin olish reaksiyalari(

a) Galogenlash reaksiyasi. Reaksiya mexanizmi.

b) Nitrolash reaksiyalari.

C-C bog`ning uzilishi bilan boradigan oksidlanish va parchalanish reaksiyalari.

Kichik va oddiy xalkali sikloalkanlar.

Tsikloalkanlarning konformatsiyasi (kreslo, vanna).

Tsikloalkanlarning aksial va ekvatorial bog`lari reaksion qobiliyatining xalqa xarakteriga bog`liqligi.

Tsikloalkanlarning aksial va ekvatorial bog`lari reaksion qobiliyatining xalqa xarakteriga bog`liqligi.

Kichik sikllarda xalqaning uzilishi bilan, oddiy xalqalarda radikal urin olish ( $S_R$ ) boradigan reaksiyalar.

#### 5. Adabiyotlar:

Primuxamedov I.M. «Organik kimyo», UzSSJ, «Meditsina», Toshkent 1990 y.

Stepanenko B.N. «Kurs organicheskoy ximii», T.1 i 2, 1981y.

Iskandarov S.I., V.Sodikov,

«Organik kime nazariy asoslari», Toshkent, «Mexnat», 1987 y.

Nesmeyanov A., Nesmeyanov N.A. «Nachalo organicheskoy ximii», 1970 y.

Tyukavkina N.A Baukov Yu.I. «Bioorganicheskaya ximiya», 1985.

Cherno`x V.P., Zimenkovskiy B.S., Gritsenko I.S. «Organicheskaya ximiya», 1993, «Xarkov».

Cherno`x V.P. Gritsenko I.S. Lozinskiy M.O. Kovalenko Z.I «Obhiiy praktikum po organicheskoy ximii Xarkov izd. NFAU «Zoloto`e stranitso`». 2002g.

#### Mavzu: Tetroganal uglerod atomidagiradikal o`rin olish reaksiyalari ( $S_R$ )

Molekulasidagi uglerod atomlari oddiy bog`lar bilan bog`langan, qolgan valentliklari bilan vodorod atomlarini biriktirgan uglevodorodlarga tuyingan uglevodorodlar deyiladi.

Tuyingan uglevodorodlarni gomolog qatori Shorlemer tomonidan birinchi marta taklif etilgan. Gomolog qatorining xar bir vakili esa gomolog deyiladi.

Tuyingan uglevodorodlarning tuzilishi va izomeriyasi.


Tuzilishni yozish uchun biz quyidagilarni biz asos qilib olishimiz kerak(

1.Uglerodning to`rt valentligini

2.Uglerodning to`rttala valenti birxil movqega ega

3.Uglerod atomlari o`zaro birikib, zanjir hosil qilish qobiliyatiga ega

